



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 02 | pp. 387-392 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TOVAR-MODDIY ZAXIRALARNING TANNARXINI ANIQLASH TARTIBI



Xashimov Baxadir Abduganievich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
buxgalteriya hisobi kafedrası i.f.n., professori

Mahkamboyev Abdulhaq Tadjimatovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
buxgalteriya hisobi kafedrası i.f.n., dotsenti

Tashbaev Bobir Urazboy o'g'li

Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti
Moliyaviy tahlil kafedrası PhD.v.b. dotsent.

E-mail: b.tashbayev@tsue.uz

Annotatsiya: Tovar-moddiy zaxiralarning yana bir xususiyati ularni milliy va xalqaro standartlarga muvofiq tannarxini aniqlashdir. Ushbu maqola Tovar-moddiy zaxiralarni MHXSga muvofiq, zaxiralar xorij hisob amaliyotida keng tarqalgan bozorga yo'naltirilgan joriy qiymat bo'yicha aniqlanadi. Milliy hisob amaliyotida zaxiralar xarid qilish (tayyorlash) haqiqiy qiymati bo'yicha baholanadi. Amaliy tadqiqotlar va ilmiy adabiyotlarni o'rganish orqali korxonalar tomonidan tovar-moddiy zaxiralar guruhlarini bo'yicha baholash.

Kalit so'zlar: tovar-moddiy zaxiralar, tannar, sof foyda, ishlab chiqarish, korxona, audit, tahlili.

Абстрактный: Еще одной особенностью запасов является определение их стоимости в соответствии с национальными и международными стандартами. Согласно этой статье «Запасы по данным Международного валютного фонда» резервы определяются по рыночной текущей стоимости, которая широко используется в зарубежной бухгалтерской практике. В практике национального учета запасы оцениваются по фактической стоимости приобретения (подготовки). Оценка товарно-материальных групп предприятиями путем практических занятий и изучения научной литературы.

Ключевые слова: запасы, себестоимость, чистая прибыль, производство, предприятие, аудит, анализ.

Abstract: Another feature of inventories is their cost determination according to national and international standards. According to this article Inventories according to the International Monetary Fund, the reserves are determined according to the market-oriented current value, which is widely used in foreign accounting practice. In the practice of national accounting, reserves are valued at the actual cost of purchase (preparation). Evaluation of inventory groups by enterprises through practical studies and research of scientific literature.

Key words: inventory, cost, net profit, production, enterprise, audit, analysis.

Jahon mamlakatlarida iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlashda tovar-moddiy zaxiralar hisobi va auditini takomillashtirishga oid chora-tadbirlar ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Tovarmoddiy zaxiralarga yetarli darajada ega bo'lmalik kompaniyalarning faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Jahon bankining 2022-yil aprel oyidagi hisobotida "2022-yil 1-aprel holatiga 2022-yil dekabr oyidan boshlab bug'doy narxining 30 foizga, shuningdek neft, tabiiy gaz, mineral o'g'itlar narxi ham sezilarli darajada oshgani va dunyo mamlakatlarida ushbu mahsulotlarga bo'lgan taqchillik ortayotgani" [1] ta'kidlab o'tilgan. Mazkur holatlar bir tomondan aholining turmush darajasiga salbiy ta'sir etayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan kompaniyalarda tovar-moddiy zaxiralar yetishmovchiligi kuzatilib, faoliyat uzluksizligi hamda moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu boisdan, kompaniyalar rahbariyati tovar-moddiy zaxiralarni o'z vaqtida hisobga olish, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish, unumsiz xarajatlarni oldini olishga e'tibor qaratmoqda. Tovarmoddiy zaxiralar bilan bog'liq firibgarlik holatlarini oldini olish va inventarizatsiya jarayonlarini shaffof va odilona o'tkazish auditorlik tekshiruvlarida asosiy masalalar qatoriga kirmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Respublikamiz iqtisodiyotida ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish va mahalliy xom ashyo resurslaridan keng foydalanishda tovar-moddiy zaxiralardan oqilona foydalanish, ularni hisobga olishning samarali tizimini yaratish lozim.

Jamiyatning mavjudligi va uning rivojlanishi jamiyat a'zolarining ehtiyojlarini qondirish maqsadida iste'mol tovarlariga aylanadigan turli resurslarni iste'mol qilish va foydalanishga bevosita bog'liq. Shu boisdan muayyan miqdordagi resurslar bilan jamiyat o'z ehtiyojlarini qondirishi kerak.

Shu o'rinda resurslarning mohiyatiga to'xtalib o'tsak. Iqtisodchi olimlar A.O'lmasov va A.Vahobovlar ta'kidlashicha, «mahsulot va xizmatlarni yaratib, ularni ishlab chiqarishdan iste'molchilarga yetkazib berish uchun zarur bo'lgan barcha moddiy, nomoddiy vositalar, ashyolar va ishchi kuchi iqtisodiy resurslarni tashkil etadi»[2].

R.Amit va P.Shouymaker ta'kidlashicha, «resurslar moddiy va nomoddiy ko'rinishda firmada mavjud yoki uning nazoratida bo'lgan aktivlar yoki omillardir. Resurslar tarkibiga moliyaviy va moddiy aktivlar, nou-xau, va inson kapitali kiradi»[3]. AQSHlik iqtisodchi olim D.A.Dilts ta'kidlashicha resurslar quyidagi toifalardan iborat:

«yer;
kapital;
ishchi kuchi;
tadbirkorlik qobiliyati»[4].

X.Gaya ta'kidlashicha «resurslar firma ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan aktivlar bo'lib, ular jihozlar, moddiy zaxiralar, xodimlarning ko'nikmalari va boshqa omillardan tarkib topadi»[5].

Sh.Shodmonov va A.Rahmatovlar «iqtisodiy resurslar deganda tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarida foydalanish mumkin bo'lgan barcha vosita va imkoniyatlar majmui»[6], degan xulosaga kelishgan.

Tadqiqot metodologiyasi: Aksiyadorlik jamiyatlarida tovar-moddiy zaxiralar hisobi va auditining nazariy va tashkiliy–uslubiy jihatlarini xalqaro amaliyot tajribalaridan kelib chiqqan holda takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi. Aksiyadorlik jamiyatlarida tovar-moddiy zaxiralar hisobi va audit jarayonida qo‘llaniladigan usullarni tizimlashtirish va asoslashda, tovar-moddiy zaxiralar xususidagi axborotlarni hisobotda ishonchli aks ettirishda, moliyaviy hisobot ma’lumotlarini shakllantirishda tovar-moddiy zaxiralar hisobi va auditini o‘tkazishda yo‘riqnoma sifatida xizmat qilishi bilan izohlanadi

Tahlil va natijalar: Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda joriy aktivlardagi zaxiralar ulushi sezilarli salmoqqa ega. Bu esa zaxiralarning ishonchli tarzda hisobga olinishi va ularning qiymati to‘g‘ri ko‘rsatilishiga alohida e’tibor qaratishni taqozo etadi. Bu jarayonda tovar-moddiy zaxiralarni to‘g‘ri tasniflash maqsadga muvofiqdir. Tovarmoddiy zaxiralarni to‘g‘ri tasniflash xo‘jalik yurituvchi subyektlarning buxgalteriya tizimida ishonchli ma’lumotlar shakllanishiga yordam beradi va ma’lumotlarining samaradorligi hamda tezkorligini oshirishga xizmat qiladi.

“Buxgalteriya balansi” nomli 15-son BHMSga binoan tovar-moddiy zaxiralar 4 ta toifaga ajratilgan. Ya’ni ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot va tovarlar. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2002-yil 27-dekabrda qabul qilingan «Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to‘ldirish bo‘yicha qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi buyrug‘ida ham yuqoridagi to‘rtta tasnif keltirilgan.

1-jadvalda “Jomboydon mahsulotlari” AJda 2023-yilda ishlab chiqarish zaxiralari tarkibi va ularning salmog‘i keltirib o‘tilgan. 1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2020-yilda “Jomboydonmahsulotlari” AJda sotilgan mahsulot tannarxida eng katta salmoqni moddiy xarajatlar egallagan. Tannarxda tovar-moddiy zaxiralarning tutgan ulushi 91,99 foizni tashkil etgan. Moddiy xarajatlar tarkibida esa xom-ashyo va materiallar 59,97 %ni, don sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar 9,07 %ni, qop va qadoqlash xarajatlari 12,03 %ni tashkil etgan. Boshqa turdagi xarajatlar esa jami 8,01 % ni tashkil etgan.

Demak, mazkur korxonada tovar-moddiy zaxiralarning tannarxdagi ulushining yuqoriligi resurslardan tejab-tergab, oqilona foydalanishni taqozo etadi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda tovar-moddiy zaxiralarni samarali boshqarishning asosiy jihati ularni baholash hisoblanadi. Zaxiralarni baholash usulini tanlash tovar-moddiy zaxiralar (tovarlar, materiallar va b.) xarid narxlarining o‘zgarish sharoitlarida dolzarb hisoblanadi. Xarid narxlarining o‘zgarishi va davr yakunida qoldiqar mavjudligi ularni baholash muammosini yuzaga keltiradi.

1-jadval

2023-yil “Jomboydon mahsulotlari” AJning sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi xarajatlari tarkibi va ulushi

No	Xarajatlar turlari	Summa, ming so‘mda	Tutgan ulushi, %da
1.	Ishlab chiqarish bilan bog‘liq moddiy xarajatlar	184531354	91,99
1.1.	Xom ashyo va materiallari	120300626	59,97
1.2.	Don sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar	18187934	9,07

	(transport xarajatlari, tayyorlov ta'minot ustamasi, jamg'arma kredit foizi)		
1.3.	Extiyot qismlar, inventarlar va xo'jalik buyumlari	5883591	2,93
1.4	Elektr energiyasi	3741269	1,86
1.5	Yoqilg'i moylash materiallari, gaz va suv	127698	0,06
1.6.	Ishlab chiqarish sohasida moddiy boyliklarning tabiiy yo'qolish normalarida va ulardan ortiqcha yo'qolishi, yaroqsizlanishi va kam chiqishi	7148935	3,56
1.7.	Qop va qadoqlash xarajatlari	24128522	12,03
1.8.	Boshqa moddiy xarajatlar	5012779	2,50
2.	Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga xaq to'lash xarajatlari	6983547	3,48
3.	Ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urta ajratmalari	1494479	0,74
4.	Asosiy vosita va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi	1214688	0,61
5.	Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar	6382144	3,18
	JAMI:	200606212	100,00

Omborga kelib tushganidan so'ng, tovar-moddiy zaxiralar amaldagi narxlarda hisobga olinadi. Korxonada zaxiralar kelib tushgandan so'ng ularni keyingi taqsimlash amalga oshiriladi:

- ishlab chiqarishga berish;
- sotish;
- boshqa xo'jalik jarayonlariga berish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida narxlarning doimiy o'zgarib turishi ro'y berishi sababli tovar-moddiy zaxiralarni berish va ularning qoldiqlarini baholash xo'jalik yurituvchi subyektda doim ham ular hisobga olingan narxlar bo'yicha amalga oshirilmaydi.

Yuqorida ta'kidlanganlarga asoslanib, shuni ta'kidlash mumkinki, tovar-moddiy zaxiralar ishlab chiqarishga berilganda ularning pul qiymati quyidagi vazifalarni hal qilishga borib taqaladi:

- tovar-moddiy zaxiralar qoldiqlari va ularning umumiy qiymatini aniqlash;
- tovar-moddiy zaxiralarni hisobdan chiqarish vositasida sotish tannarxini aniqlash;
- tovar-moddiy zaxiralarni ombordan hisobdan chiqarish ketma-ketligini aniqlash.

Yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni hal qilish uchun tovar-moddiy zaxiralarni baholashning turli usullari qo'llaniladi. "Tovar-moddiy zaxiralar" nomli 4-son BHMSga binoan, tovar-moddiy zaxiralar ishlab chiqarishga berishda (sotish qiymati bo'yicha hisobga olingan tovarlar bundan mustasno) va boshqacha tarzda chiqib ketishida, ularni baholash quyidagi usullardan biri bilan amalga oshiriladi:

- «har bitta birlikning tannarxi bo'yicha;

o'rtacha tannarx bo'yicha;

moddiy-ishlab chiqarish zaxiralarini vaqt bo'yicha birinchi xarid qilish tannarxi bo'yicha (FIFO usuli)» [6].

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda qo'llanadigan tovar-moddiy zaxiralarni baholash usuli uning hisob siyosatida ko'rsatilishi kerak.

Baholash usulini tanlashga mamlakat iqtisodiy siyosati, soliqqa tortish tizimi va bozor munosabatlarining rivojlanish xususiyatlari ta'sir etadi. Xo'jalik yurituvchi subyekt qanday vaziyatda ekanligiga qarab, u alohida tovar-moddiy zaxiralar guruhlari bo'yicha baholash usullaridan biri qo'llanilishi lozim ekanligidan kelib chiqib, baholash usulini o'zgartirishi mumkin.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda qo'llanadigan tovar-moddiy zaxiralarni baholash usuli uning hisob siyosatida ko'rsatilishi kerak.

Baholash usulini tanlashga mamlakat iqtisodiy siyosati, soliqqa tortish tizimi va bozor munosabatlarining rivojlanish xususiyatlari ta'sir etadi. Xo'jalik yurituvchi subyekt qanday vaziyatda ekanligiga qarab, u alohida tovar-moddiy zaxiralar guruhlari bo'yicha baholash usullaridan biri qo'llanilishi lozim ekanligidan kelib chiqib, baholash usulini o'zgartirishi mumkin.

Tovar-moddiy zaxiralarni baholashning yuqorida keltirilgan usullarining qiyosiy tavsifini ko'rib chiqamiz.

Tovar-moddiy zaxiralarni baholashda asosan uch xil usuldan foydalanish tavsiya etilgan. Mamlakatimiz amaliyotida LIFO va boshqa usullardan foydalanish tavsiya etilmagan. Mamlakatimiz amaliyotida odatda o'rtacha tannarx usuli keng qo'llaniladi. Chunki ushbu usulda tannarxni aniqlash ancha oson hisoblanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari va, eng avvalo, sof foyda tovar-moddiy zaxiralar hisobi va baholashni to'g'ri tashkil qilishga bog'liq.

Tovar-moddiy zaxiralarning yana bir xususiyati ularni milliy va xalqaro standartlarga muvofiq tannarxini aniqlashdir. MHXSga muvofiq, zaxiralar xorij hisob amaliyotida keng tarqalgan bozorga yo'naltirilgan joriy qiymat bo'yicha aniqlanadi. Milliy hisob amaliyotida zaxiralar xarid qilish (tayyorlash) haqiqiy qiymati bo'yicha baholanadi.

"Zaxiralar" nomli moliyaviy hisobot xalqaro standartida xarajatlarni belgilash va ularni keyinchalik aniq tannarxni sotish narxi bo'yicha tan olishni o'z ichiga olgan xarajatlar sifatida ko'rsatilishini ta'minlaydi, shuningdek xarajatlarga zaxiraga kiritish uchun foydalanilgan tannarxni hisoblash usullari bo'yicha ko'rsatmalarga ega.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytish mumkinki, xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari va, eng avvalo, sof foyda tovar-moddiy zaxiralar hisobi va baholashni to'g'ri tashkil qilishga bog'liq

Tovar-moddiy zaxiralardan foydalanish samaradorligiga baho berildi. Xususan hisobot davridagi o'tgan davrga nisbatan aylanma mablag'lar aylanuvchanlik koeffitsiyentining oshganligi, shuningdek aylanish kuni davriyligining kamayganligi aniqlandi. Bu esa aksiyadorlik jamiyati rahbariyati toonidan tovar-moddiy zaxiralardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha ijobiy ishlar olib borilayotganligidan dalolat beradi

Adabiyotlar

1. <https://openknowledge.worldbank.org/bitstream/handle/10986/37223/CMO-April-2022.pdf>
2. O'lmasov A., Vahobov A.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. –T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2014. -456 b. 26-betdan.
3. Raphael Amit, Paul J.H. Schoemaker. Firm Resources. The Palgrave Encyclopedia of Strategic Managemen. 2015. DOI:[10.1057/978-1-349-94848-2_481-1](https://doi.org/10.1057/978-1-349-94848-2_481-1)
4. David A. Dilts Introduction to microeconomics. Published by Indiana - Purdue University - Fort Wayne. 2004. Page 248/
5. Hanningtone Gaya. Tangible Resources are the First Step in the Value Creation Process of Sources of Sustainable Competitive Advantage in a Services Firm: An Activity-Resource-Based View (ARBV) Theory?//
6. Global Journal of Management and Business Research: A Administration and Management Volume 17 Issue 2 Version 1.0 Year 2017
7. Shodmonov Sh., Raxmatov M. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik . –T.: "Zamin nashr", 2021. -856 b. 22-betdan.
8. «Tovar-moddiy zaxiralar» nomli 4-son BHMS

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

